Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli.....	679
<i>Bovanova Umida Abduvahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna</i>	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati.....	683
<i>Eshmurodova Shirin Oybekovna</i>	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari.....	686
<i>Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li</i>	
Talabalarda affliativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari.....	689
<i>Omonova Nilufar Omon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni.....	694
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi</i>	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	698
<i>Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna</i>	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi.....	702
<i>Qurbonova Nafisa Saidjonovna</i>	
Tarbiya panin oqituv arqali oqivshiflardin kreativ qabiletin rawajlandiruv.....	706
<i>Reymova Gulaim</i>	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari.....	710
<i>Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi</i>	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi.....	714
<i>Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi</i>	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
<i>Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
<i>Sayfetdinova Dildora Ikramitdinovna</i>	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gospital maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish.....	726
<i>Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi</i>	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida.....	730
<i>Ibragimova Shoira Normuminovna</i>	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
<i>Tajimbetov Anvar Tengelbayevich</i>	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
<i>Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli.....	743
<i>Usmonova Kamola Erkinovna</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
<i>X. A. Suyunova</i>	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni.....	752
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida.....	756
<i>Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li</i>	



Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA REFLEKSIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA O'YINNING AHAMIYATI

Xomidova Dilorom Abduraxmonovna

University of University and Science, katta o'qituvchi

Xoshimova Zuxra Sulton qizi

Andijon viloyati Ulug'nor tumani 8-DMTT tarbiyachisi, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinlardan foydalanish masalalari, o'yinning bola hayotidagi o'rni hamda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o'yin faoliyatining psixologik, pedagogik va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. O'yin jarayonida bola shaxsining bilish jarayonlari, nutqi, ijtimoiy moslashuvi va ijodkorlik qobiliyatining shakllanishi ilmiy manbalar hamda amaliy tajribalar asosida yoritib beriladi. Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish va bolalarning refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'yin turlari, qoidali o'yinlar, ijodiy o'yinlar, maktabgacha ta'lim, rivojlanish, bilish jarayonlari, pedagogik texnologiyalar, egosentrik nutq, kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the use of games in preschool educational organizations, the role of play in a child's life, as well as the psychological, pedagogical, and social significance of play activities in the development of preschool children. Based on scientific sources and practical experience, the formation of cognitive processes, speech, social adaptation, and creative abilities of a child's personality in the process of play is examined. The article aims to develop practical recommendations for the effective use of game-based technologies in preschool education and for enhancing the reflective competencies of children.

Key words: types of games, rule-based games, creative games, preschool education, development, cognitive processes, pedagogical technologies, egocentric speech, competence.

Аннотация: В статье анализируются вопросы использования игр в дошкольных образовательных организациях, роль игры в жизни ребенка, а также психолого-педагогическое и социальное значение игровой деятельности в развитии детей дошкольного возраста. На основе научных источников и практического опыта раскрываются особенности формирования познавательных процессов, речи, социальной адаптации и творческих способностей личности ребенка в процессе игровой деятельности. Статья направлена на разработку рекомендаций по эффективному использованию игровых технологий в дошкольных образовательных организациях и развитию рефлексивных компетенций у детей.

Ключевые слова: виды игр, игры с правилами, творческие игры, дошкольное образование, развитие, познавательные процессы, педагогические технологии, эгоцентрическая речь, компетентность.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda aql va ilmiy bilimlarning ijtimoiy obro'si keskin oshdi. Bu esa kattalarning bolalarga o'qish, yozish va sanashni imkon qadar erta o'rgatishga bo'lgan intilishini kuchaytirdi. Mazkur ko'nikmalar esa his qilish, fikrlash va yaratish qobiliyatlariga tayanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida kuzatuvchanlik, ijodkorlik, tasavvur va fantaziyani rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Mutaxassislar bolalarning she'r o'qish va qayta hikoya qilish jarayonida aniq diksiya, xilma-xil intonatsiya hamda hissiy ifodani yetarli darajada egallamaganligini ta'kidlaydilar. Shu sababli hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining bilimli, faol, izlanuvchan, kreativ, ijodkor hamda oliy ma'lumotli bo'lishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Refleksiv kompetensiya – bu bolaning o'z harakatlari, his-tuyg'ulari, xatolari va muvaffaqiyatlarini anglay olish, ularni tahlil qilish hamda xulosa chiqarish qobiliyatidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uyg'un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolalarning butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muassasadir. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy



faoliyati bo'lib, ushbu faoliyat orqali kishilarga bo'lgan munosabatlarning qay darajada shakllanganligi namoyon bo'ladi. O'yin bolalarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish, jismoniy rivojlanishni ta'minlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ularni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Jamiyatning ma'naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakli va mohiyatiga bog'liqdir. Shu boisdan ham ta'lim tizimida yangilanishlar Respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta'lim zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

O'yin har bir yosh bosqichida bolaning tevarak-atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatidan kundalik vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Shu sababli bola o'ynab charchamaydi va zerikmaydi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istaklari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda shaxsiy fazilatlarini o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O'yin jarayonidagi faoliyatning psixik taraqqiyotdagi ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlarini o'yin davomida nafaqat namoyon bo'ladi, balki mustahkamlanadi va o'zlashtiriladi.

Psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya'ni to'g'ri tashkil etilgan o'yin bola shaxsini har tomonlama rivojlantiradi hamda bolaning barcha psixik jarayonlari – sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodaning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan kattalarning xatti-harakatlari va xulq-atvoriga faol taqlid qilishdan iborat bo'lib, bolalarda ma'naviy sifatlarni mustahkamlash hamda odob-axloq qoidalarini egallash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida shifokor yoki o'qituvchi rolini bajarayotgan bo'lsa, ushbu kasbga xos barcha sifatlarni namoyon etishga intiladi. Agar bolalar o'yinga chuqur berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos xususiyatlar yanada samimiy va ijodiy tarzda namoyon bo'ladi.

Bolalar uchun o'yin mazmunining hech qanday chegarasi yo'q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotining barcha jihatlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yin har bir yosh bosqichida bolaning tevarak-atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishini ifodalovchi jarayon hisoblanadi.

Bolalarning ehtiyojlari, istaklari va qiziqishlari bevosita o'yinda ifodalanadi. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib, ularning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yin masalasi uzoq yillardan buyon mashhur olimlar, pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga tortib kelayotgan dolzarb muammolardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bola psixikasining taraqqiy etishida o'yinning roli beqiyosdir. Bolaning psixik rivojlanishini o'yin faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki o'yin orqali bola nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham rivojlanadi, unda refleksiv kompetensiyalar shakllanadi. Bola o'yin jarayonida o'rganibgina qolmay, nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga, xayol qilishga, ijod qilishga hamda muomala madaniyatini egallashga o'rganadi.

Ko'plab psixolog va pedagoglar o'yinning psixologik jihatlarini tadqiq etib, uning bolaning psixik kamotidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirish vositasidir. Ushbu voqelik bolaning real hayotidan ko'ra qiziqarliroq bo'lishi mumkin. Psixologik adabiyotlar tahliliga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muloqotiga qiziqadi;
- bola rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi, ifodali va jo'shqin hissiy jihatlarini aks ettiradi;
- rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda yashayotganini his etgan holda o'z istaklarini amaliyotga tatbiq etadi;
- kattalar hayoti va faoliyati bolaning tasavvur timsollari orqali namoyon bo'lsa-da, uning shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasida axloqiy sifatlarni shakllantirish va ongli xulq-atvorni rivojlantirish masalalarini yoritadi. U o'yinni bolani tarbiyalash hamda unda ijtimoiy xulqni shakllantirish vositasi sifatida baholaydi. Asarda bolani o'z xatti-harakatlarini anglashga o'rgatish g'oyasi ilgari suriladi, bu esa refleksiv kompetensiyaning dastlabki ko'rinishidir.

O'zbek pedagog olimlari ham maktabgacha ta'limda o'yinning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatini alohida ta'kidlab kelganlar. Xususan, Abdulla Avloniy ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning faol va ongli ishtirokini muhim deb hisoblaydi. Uning qarashlarida bolani mustaqil fikrlashga o'rgatish g'oyasi refleksiv kompetensiyaning dastlabki ko'rinishlari bilan uyg'unlashadi.

Qori Niyoziy ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning mustaqil fikrlashi va ongli faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. U o'yin va amaliy mashg'ulotlarning bolalar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Rauf Hasanov maktabgacha ta'lim metodikasiga oid ishlanmalarida o'yinning shaxs rivojlanishidagi o'rnini yoritib, ayniqsa roli va didaktik o'yinlarning bolalarda mustaqil fikrlash va o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

J. Piagetning "Play, Dreams and Imitation in Childhood" asarida o'yin bolaning intellektual va psixik rivojlanishining muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Piaget nazariyasiga ko'ra, o'yin bolaning bilish jarayonining tabiiy shakli bo'lib, u tafakkur, tasavvur va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishda o'yinning ilmiy asosini belgilaydi.

L. S. Vigotskiyning "Мышление и речь" ("Tafakkur va nutq") asarida tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi, bolaning aqliy rivojlanishida nutqning o'rni hamda so'z ma'nosining shakllanishi chuqur tahlil qilingan. Muallif nutqni nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlashni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida asoslab beradi. Ushbu nazariy qarashlar bugungi kunda ham maktabgacha ta'lim tizimida refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishda, ayniqsa o'yin faoliyati orqali tafakkur va nutqni shakllantirish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ustuvorligi belgilangan. Unda bolalarda kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarni, jumladan refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son¹ qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida bolalarning mustaqil fikrlashi, o'z harakatlarini nazorat qilishi va baholay olishi kabi kompetensiyalarni shakllantirish zarurligi qayd etilgan. Ushbu jarayonda o'yin asosiy pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining yetakchi turi ekanligi masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng yoritilgan. Daniil Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o'yinlarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslab bergan. Uning fikriga ko'ra, o'yin jarayonida bola ijtimoiy rollarni bajarish orqali o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish va baholashni o'rganadi, bu esa refleksiv kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli MTT hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy ravishda kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan keyin hamda kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o'rta harakatchanlikni talab qiladigan o'yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko'proq didaktik o'yinchoqlar, stol ustida o'ynaladigan stol-bosma o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlarni rejalashtirish ma'qul. Sayr davomida harakatli o'yinlar hamda qurish-yasash o'yinlarini tashkil etish foydalidir.

Bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari va harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. O'yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o'rmon, metro yoki temir yo'l vagoni bo'lishi mumkin. Bola hech qachon tinch o'ynamaydi: bir o'zi o'ynasa ham o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, ona, bemor, shifokor – xullas, hammaning o'rniga o'zi gapiradi. Buni fanda egosentrik nutq deb ataladi. Egosentrik nutq – bu bolalarning boshqalar bilan muloqot qilish uchun emas, balki o'z-o'zi bilan gaplashishi, fikrlarini tartibga solishi va harakatlarini boshqarishi uchun ishlatadigan nutq turidir. J. Piage nazariyasiga ko'ra, bu bolaning dunyoni faqat o'z nuqtai nazaridan ko'rishi bilan bog'liq bo'lib, odatda 3-7 yoshdagi bolalarda kuzatiladi va keyinchalik ichki nutqqa aylanadi.

Pedagoglar o'yin texnologiyalarini quyidagi yo'nalishlarda qo'llashlari mumkin:

- didaktik o'yinlar – bilimlarni mustahkamlash;
- rolli o'yinlar – ijtimoiy tajribani boyitish;
- konstruktorlik o'yinlari – muhandislik fikrlashni rivojlantirish;
- harakatli o'yinlar – jismoniy faollikni oshirish;
- ijodiy o'yinlar – fantaziya va kreativlikni rag'batlantirish.

Pedagogning asosiy vazifasi – o'yin jarayonini boshqarish emas, balki bolaning o'yin faoliyati uchun sharoit yaratish, yo'naltirish va ijobiy motivatsiya berishdan iborat.

So'z obrazning yaxshiroq gavdalanishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5179335>



munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga munosabat bildirishiga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning mazmuni o'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlarini boyitib, chuqurlashtirib boradi. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari va munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi va boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona Vatanga, o'z xalqiga hamda boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi va mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilish kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga va bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos maktabdir.

Rolli o'yinlar jarayonida bola muloqotga ehtiyoj sezadi, so'z boyligini kengaytiradi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishni mashq qiladi. Pedagogning to'g'ri tashkil qilgan nutqiy vaziyatlari bolada:

- dialogik nutq;
- monologik nutq;
- emotsional ifodalilik kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yosh davri – shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda bolaning o'zini anglash, his-tuyg'ularini tushunish va xatti-harakatlarini baholash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Refleksiv kompetensiya deganda bolaning o'z faoliyatini tahlil qila olishi, xatolarini anglab yetishi, o'z his-tuyg'ularini ifodalay olishi hamda boshqalar nuqtai nazarini tushunishga intilishi tushuniladi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiya jarayoni asosan o'yin faoliyati orqali rivojlanadi. Jumladan, Lev Vygotskiy o'yin faoliyatini bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bog'lab, aynan o'yin jarayonida bola o'z imkoniyatlaridan yuqori darajadagi faoliyatni namoyon qilishini ta'kidlagan. Shuningdek, Jean Piaget maktabgacha yosh davrini intellektual rivojlanishning muhim bosqichi sifatida baholab, bolalar tafakkuri aynan faol harakat va tajriba orqali shakllanishini ko'rsatgan.

O'yin quyidagi yo'nalishlarda refleksiv kompetensiyani rivojlantiradi:

1. **O'zini anglashni rivojlantirish.** Rolli o'yinlar orqali bola turli ijtimoiy rollarni bajaradi (ota-ona, shifokor, o'qituvchi va boshqalar). Bu jarayonda u o'z harakatlarini boshqalar harakati bilan solishtiradi va o'zini tashqi nuqtai nazardan ko'ra boshlaydi.
2. **Emotsional refleksiya.** Harakatli va syujetli o'yinlarda bola yutish-yutqazish, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik holatlarini boshdan kechiradi. Bu esa o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish ko'nikmasini rivojlantiradi.
3. **Ijtimoiy refleksiya.** Guruhli o'yinlarda bolalar kelishuv, qoidaga rioya qilish, boshqalar fikrini inobatga olishni o'rganadilar. Bu esa empatiya va o'zaro baholash ko'nikmalarini shakllantiradi.
4. **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.** Didaktik o'yinlar bolani qaror qabul qilish, xatoni aniqlash va to'g'ri yo'lni tanlashga undaydi. Bola "Nima uchun shunday bo'ldi?" degan savolga javob topishga harakat qiladi.

Shunday qilib, o'yin nafaqat hordiq vositasi, balki refleksiv tafakkurni rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Tahlillar asosida quyidagi natijalarga kelish mumkin:

1. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv kompetensiyaning tabiiy va samarali rivojlanish muhitini yaratadi.
2. Rolli va syujetli o'yinlar o'zini anglash va ijtimoiy refleksiyani kuchaytiradi.
3. Didaktik o'yinlar bolalarda muammoni tahlil qilish va xatolarni anglash ko'nikmasini shakllantiradi.
4. Harakatli o'yinlar orqali bolalarda emotsional barqarorlik va o'zini nazorat qilish qobiliyati rivojlanadi.
5. O'yin jarayonida tarbiyachining to'g'ri pedagogik rahbarligi refleksiv kompetensiyaning yanada samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'yin maktabgacha ta'lim tizimida refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishning eng muhim va tabiiy vositasi hisoblanadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Eng katta o'sish o'z harakatini izohlash va his-tuyg'ularni ifodalash ko'rsatkichlarida kuzatildi. O'yin yakunidagi refleksiv suhbatlar samaradorlikni oshirdi. Bolalarda mustaqillik va ijtimoiy moslashuv darajasi sezilarli yaxshilandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yin bo'lgani sababli har bir faoliyatni o'yin orqali tashkil etish yaxshi natija beradi. Maktabgacha ta'lim yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotlarning mazmuni bolani atrof-muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni va lug'atni boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga o'rgatish hamda bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat.

Tashkil etiladigan har bir o'yin elementlari mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at (qirqib yopishtirish, rasm chizish, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash), qurilish materiallari bilan ishlash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan maktab ta'limini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biridir. O'yin quyidagi sohalarda kompleks rivojlanishni ta'minlaydi:

- intellektual;
- jismoniy;
- nutqiy;
- ijtimoiy;
- axloqiy.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan oqilona foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bolalarning maktabga tayyorgarligini mustahkamlaydi. Shuning uchun pedagoglar o'yin faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishlari, innovatsion o'yin metodlaridan foydalanishlari lozim.

O'yin davomida bola jamoadagi xulq me'yorlarini o'zlashtiradi, navbat kutish, hamkorlik, mas'uliyat kabi ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi. Rolli o'yinlar orqali kattalar mehnati, kasblar, ijtimoiy munosabatlar model-lashtiriladi. Bola o'z xatti-harakatlarini boshqarishni, nizolarni hal qilishni o'rganadi. Refleksiv kompetensiyasi rivojlangan bola maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboyeva O., Yo'ldosheva S. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020.
2. Toshpulatova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Смирнова Е. О. Развитие игровой деятельности у детей дошкольного возраста. – Москва, 2001.
4. Выготский Л. С. Психология развития ребёнка. – Москва, 1984.
5. Эльконин Д. Б. Психология игры. – Москва, 1999.
6. Пиаже Ж. Речевое и интеллектуальное развитие детей. – Москва, 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.: <https://lex.uz/docs/-4646908>
8. Maktabgacha ta'lim davlat o'quv dasturi – "Ilk qadam". – Toshkent, 2022.
9. Xomidova D. Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish: o'quv qo'llanma. – Namangan: "Usmon Nosir media" nashriyoti, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.